

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана	6
---	---

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	15
---	----

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari	20
---	----

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari	25
--	----

K.P.Islamova

Sadriddin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi	28
---	----

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasining falsafiy tahlili	33
---	----

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini	37
--	----

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati	42
---	----

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi	47
---	----

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni	54
---	----

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili	59
--	----

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati	62
--	----

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis	70
--	----

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari	74
--	----

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili	78
--	----

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni	81
---	----

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati	85
--	----

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni	90
--	----

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari	93
---	----

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari	99
---	----

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili	103
---	-----

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish	
--	--



UO'K: 101.1

O'ZBEK XALQINING ADABIY MEROSIDA EKOLOGIK MAS'ULIYAT VA FIDOYILIK FAZILATLARINING ANALITIK TAHLILI**АНАЛИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КАЧЕСТВ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И БЕСКОРЫСТИЯ В ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА****ANALYTICAL ANALYSIS OF THE QUALITIES OF ENVIRONMENTAL RESPONSIBILITY AND SELFLESSNESS IN THE LITERARY HERITAGE OF THE UZBEK PEOPLE****Daliyeva Muattarxon Muxtorovna**

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada o'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida mas'uliyatlilik va fidoyilik talqinini tadqiq etishning nazariy asoslari, o'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida mas'uliyatlilik va fidoyilik talqinining falsafiy tahlili, o'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosi asosida jamiyatda mas'uliyatlilik va fidoyilikni rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, o'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarini analitik tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы изучения трактовки ответственности и самопожертвования в духовно-нравственном наследии узбекского народа, философский анализ трактовки ответственности и самопожертвования в духовно-нравственном наследии узбекского народа, перспективные задачи развития ответственности и самопожертвования в обществе на основе духовно-нравственного наследия узбекского народа. Также дается аналитический анализ качества экологической ответственности и самопожертвования в литературном наследии узбекского народа.

Abstract

The article studies the theoretical foundations of the study of the interpretation of responsibility and self-sacrifice in the spiritual and moral heritage of the Uzbek people, the philosophical analysis of the interpretation of responsibility and self-sacrifice in the spiritual and moral heritage of the Uzbek people, the future tasks of developing responsibility and self-sacrifice in society based on the spiritual and moral heritage of the Uzbek people. Also, an analytical analysis of the qualities of ecological responsibility and self-sacrifice in the literary heritage of the Uzbek people is provided.

Kalit so'zlar: o'zbek xalqi, ma'naviy-axloqiy meros, mas'uliyatlilik va fidoyilik, modernizatsiya, innovatsiya, ijtimoiy, individual, mexanizm, texnologiya, siyosiy, milliy, konseptual va aksiologik asos.

Ключевые слова: Узбекский народ, духовно-нравственное наследие, ответственность и самоотверженность, модернизация, инновации, социальный, индивидуальный, механизм, технология, политический, национальный, концептуально-аксиологическая основа.

Key words: Uzbek people, spiritual and moral heritage, responsibility and dedication, modernization, innovation, social, individual, mechanism, technology, political, national, conceptual and axiological basis.

KIRISH

Bugungi kunda ekologik muammolarning umumbashariy miqyosda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy ziddiyatlarni keltirib chiqarayotganligi ekologik mas'uliyatni shakllantirishni taqozo qilmoqda. Tabiat va inson munosabatlarining dialektik aloqadorligi, tabiatni muhofaza qilish sohasida, insoning ijtimoiy-siyosiy mas'uliyatini yangi sifat darajaga olib chiqishni talab etmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy-ekologik muammolar yechimida zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda aholining tabiatdan foydalanish an'analari asoslangan ekologik mas'uliyatini rivojlantirishning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda barqaror ekologik vaziyatni, tabiiy atrof-muhit musaffoligini saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning muhim subyektiv omili bo'lgan ekologik ong va madaniyatni yanada yuksal-tirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. ...bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin». Buning asosiy yechimlaridan biri esa jamiyatda ekologik mas'uliyatni shakllantirishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

FALSAFA

Xalqlarning ma'naviy-axloqiy merosida mas'uliyatlilik va fidoyilik talqinini tadqiq etishning nazariy asoslari, o'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida mas'uliyatlilik va fidoyilik talqinining falsafiy tahlili, o'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosi asosida jamiyatda mas'uliyatlilik va fidoyilikni rivojlantirish masalalari James R.Ozinga, Jacob Neusner, George Herbert Palmer, Robin Gill, Andrew Michael Flescher, V.N.Podshivalov, G.V.Lakazova, A.Frolov, V.Kinelev, I.Kosova, B.Azarov, L.Vigotskiy, S.Rubinshteyn, V.Bespalko, E.Yusupov, S.Otamurodov, I.Saifnazarov, M.Imomnazarov, M.Nurmatova, I.Xo'jamurodov, U.Uvatov, U.Kushayev, I.Ergashev kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qadimgi davr san'atining tarixiy-badiiy manbaalaridan bo'lgan xalq og'zaki ijodiyoti namunalarida, ilk tosh bosma bitiklarida, keyinchalik shakllangan yozma badiiy adabiyotida insonning tabiatga ongli munosabati haqida g'oyat qimmatli fikrlar uchraydi. Bunda ma'naviyatni, xususan so'z san'atini o'zida mujassam etgan badiiy adabiyot ajdodlar ekologik amaliy tarbiya tajribasida asosiy usul va vosita hisoblangan. Masalan, Olam va odamning yaratilishi kabi qadimgi afsonalar mohiyatiga, inson va tabiat uyg'unligi, insonning tabiatni avaylab-asrashga mas'ulligi singdirib yuborilgan.

Tarixiy taraqqiyot davomida umuminsoniy g'oyalarni ifodalagan badiiy adabiyot shaxs ekologik mas'uliyati va fidoyiligini badiiy obrazlar orqali shakllantirish bilan insoniyatni tabiatni sevishtirish, uni asrab-avaylashdan iborat ma'naviy-axloqiy kamolotga da'vat etib kelgan. Jumladan, umumjahon ekologik ma'naviy tafakkur rivojiga Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar dunyoqarashini ifodalagan ekologik mavzudagi badiiy merosi ham bunga ulkan hissa bo'lib qo'shilganligi tarixiy haqiqatdir. Ayniqsa, Mahmud Koshg'ariy, Abu Ali ibn Sino, Nosir Xisrav, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat va Ogahiy kabi yuzlab Sharq mutafakkirlari adabiy asarlaridagi teran ekologik-falsafiy ta'limotlarining umuminsoniyat ma'naviy merosi sifatida e'tirof etilishi fikrimiz dalildir.

Jaloliddin Rumiy «Nay taronasi» deb nomlangan she'rida tabiat elementlari o'rtasidagi uyg'unlikka putur yetsa parokandalik vujudga kelishini lirik kechinmalarda ifodalab: «... gul ketsa, guliston qolmagay, so'ngra bulbul birla doston qolmagay», deb yozgan edi. Rumiy insonning bu dunyoda mavjudligi, hayoti, shodligi, zavq-shavqi tabiat borlig'i, go'zalligi bilan mushtarak va bir butunlikligini qayd etgan.

Abu Ali ibn Sino buyuk tabobat olimi, faylasuf, tilshunos, bo'lish bilan birga, zabardast adib ham edi. Uning «Tayr», «Salomon va Ibsol» kabi nasriy asarlarida va she'rlarida tabiat borlig'ini asrab-avaylash, mehrli bo'lish, jonzotlarga, o'simliklarga ozor yetkazmaslik kabi g'oyalarni ifodalagan. Masalan, «Salomon va Ibsol» asarida behush yotgan Ibsolni oq kiyik o'limdan saqlab qoladi. Ibsolning insondan ko'rmagan yaxshilikni zabonsiz bir jonivordan topganligi kitobxonni chuqur falsafiy mushohadalar, tabiatga muhabbat tuyg'ulari shakllantirishga ko'maklashadi.

O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy va badiiy merosida va badiiy adabiyotda ekologik mazmunidagi mavzularni aks etishining tadrijiy jarayonlari tahlili shuni ko'rsatadiki u ham, boshqa san'at turlari singari, jamiyatning mavjud obyektiv shart-sharoiti va subyektiv omillari bilan uzviy bog'lanib kelgan. Chunonchi, mustabid tizimda badiiy adabiyotning ifodaviy mohiyati, albatta sinfiy, partiyaviy tamoyillarga asoslangan bo'lib, ekologik mavzularni badiiy yoritilishida hayot haqiqati ko'rsatildi. Xususan, cho'llarni o'zlashtirishni tarannum qilgan badiiy adabiyot, siyosiy tizimning mintaq uchun ekologik halokatga bergan fatvosi maddohiga aylandi. «Uzoqni ko'zlagan qiz», «Tursunoy va uning izdoshlari», «Cho'l bekasi» kabi asarlar shular jumlasidandir.

O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy va badiiy merosining shaxs ekologik ekologik mas'uliyati va fidoyiligi ravnaqiga ta'sir doirasini, bosqichlarini tadqiq etishda, uning tarixiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash muhim metodologik ahamiyatga ega. Zero, tarix-istiqbol mo'ljalini ko'rsatadigan kelajak sabog'idir.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyo xalqlarining ekologik axloqiy tarbiya maktabi eramizdan oldingi zardushtiylikka borib taqaladi. Shu nuqtai nazardan Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» Markaziy Osiyo xalqlarining ekologik ong va madaniyatining ilk evolyutsion asoslarini tashkil etadi. Unda tabiatni g'orat qilmaslik, atorof-muhitni muhofaza qilish, shaxsiy poklik, turmush gigenasi, halollik, jamiyatning tabiiy muvozanat holatini saqlash borasida qilinadigan ishlar va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar xususidagi fikrlar hamon amaliy qiymatini saqlab qolmoqda. Dunyo

bo'yicha atrof-muhitni iflos qilish, ichimlik suv manbalariga turli oqavalarni oqizishga qarshi kurash avj olgan hozirgi paytida «Avesto»dagi ekologiyaga doir fikrlar hozir ham katta nazariy va amaliy, adabiy-ma'rifiy qimmatga egadir.

«Avesto» badiiy qadriyatlarining shaxs ekologik mas'uliyat va fidoyiligini shakllantirishda ahamiyati shundaki, undagi tabiat borlig'ining nafis qirralari, rang-barang o'xshatishlar kishiga cheksiz etetik zavq bag'ishlab, inson qalbini Ona zamin tabiatiga oshno etadi. Masalan, unda yaxshi ishlov berilgan serhosil yer - eriga tezroq farzand tug'ib bergan kelinchakka o'xshatiladi. Zardo'shtilikning yangi oqimi Moniylik ta'limoti qadimigi turkiy adabiyotda o'ziga xos yo'nalish bo'lib, «Xuastuanift» (Moniylarning tavbanomasi)da va moniylik ruhida she'rlarida, Mazdak ta'limotida jonivorlarga azob berish, o'ldirish og'ir gunoh hisoblanib, bunday qabih yovuzliklardan insonni qaytarish va ezguliklarga chorlash g'oyasi mujassamlashgan.

Demak, zamonlar osha insonning tabiatga salbiy ta'sir doirasi ortib borishga qarshi qaratilgan badiiy adabiyotning ekologik aks-sadosi, xilma-xil mavzu va janrlarida o'z ifodasini topib kelgan. Shu jihatdan, badiiy adabiyot jamiyat hayotida zaminining barqaror tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekologik g'oyalarni yaratuvchi va omma ongiga singdiruvchi qulay vosita sifatida muhim ijtimoiy funksiyani bajarish jarayonida o'zi ham didaktik-tarbiyaviy ta'sir ko'lam doirasini davr ruhiga muvofiq mukammalashtirib borgan.

O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy va badiiy merosining shaxs ekologik mas'uliyat va fidoyiligiga ta'sirini, umuman ma'naviy-ma'rifiy ilmlar, xususan falsafiy dunyoqarashlarning muqobil yo'nalishlarini ekologik maqsad kontekstida, qiyosiy tahlil asosida o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki, badiiy adabiyotdagi ekologik mavzularining falsafiy tahlili zamirida inson ekologik borlig'ining gnoseologik ildizi, kategoriyalari, rivojlanish tendsiyalarini ilmiy bilish va ularning pedagogik-didaktik funksiyalarini nazariy-metodologik asoslash yotadi. Shu maqsadan kelib chiqib, ekologik madaniyat tarixiga murojaat qilar ekanmiz, ajdodlarimiz tomonida yaratilgan badiiy-adabiy merosi muhim amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'rta asrlarda yashab, ijod qilgan Forobiyning adolatli jamiyat qurish, bevosita komil insonni tarbiyalash bilan bog'liqligini birinchilardan o'z davri darajasida, ilmiy-nazariy jihatdan hal qilgan edi. Olimning «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» kabi asarlarida keltirilgan badiiy metaforalari jamiyat ijtimoiy-siyosiy muammolarini hal etishga bag'ishlangan. Faylasuf-olim tarbiya masalasida badiiy madaniyatga falsafaning ajralmas qismi sifatida qaraydi. U «she'riyatni qunt bilan kuzatib muhokama qilingki, toki bu ruhingni donolik lazzatidan tortishiga, xaqiqatga muhabbatingni qo'zg'atishga bois bo'lsin», deb yozgan edi.

XULOSA

O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy va badiiy merosi o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida inson ma'naviy kamolotini yuksaltirish, ekologik dunyoqarashini shakllantirish, estetik his tug'ularini boyitish kabi muhim ijtimoiy funksiyani bajarib kelgan. Zero, yozuvchi P.Qodirov aytganidek: «Butun tabiat quyosh nuri bilan tirik. Ammo, inson quyosh nuridan bahramand bo'lish bilan cheklanmaydi. Inson ruhi yaxshi odamlarning so'zidan, siymosidan, ijodidan taraladigan ma'naviy ziyoga ham katta ehtiyoj sezadi. Chunki, ham tabiiy nur, ham ma'naviy ziyo bilan yo'g'rilgan inson hayotigina barkamol bo'ladi».

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Валиханов М.Н. Табиатшунослик асослари. - Т.: М.Улўфбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети босмахонаси. 2004. – Б. 52-53.
2. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. - Т.: "Ўқитувчи", 1976.
3. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. -Тошкент: 2010, -Б. 633
4. Шермухамедов С, Умирзоқова Н. Давримиз алломаси. - Т.: Ўз. Республикаси ФА"Фан", 1998.
5. Эргашев И.С. Шахс маънавий камолотида эркинлик ва ижтимоий масъулият уйғунлиги. номз. Дисс. Автореферати. - Тошкент: 2011, -Б. 12.
6. Якубов Ю.М. Ислом таълимотида шахс ва жамият муносабатлари масаласи. Номз. Дисс. Автореферати. –Тошкент: 2008.